Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

RAQAMLI IQTISODIYOTDA SOLIQ MA'MURIYATCHILIGINI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Shermuxamedov Bexzodjon Usmonovich
Ilmiy rahbar: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
"Mintaqaviy iqtisodiyot" kafedrasi
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qosimova Fazilat Sherzod qizi
"Buxgalteriya hisobi" fakukteti talabasi
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20455842

Annotatsiya: Mazkur tadqiqot zamonaviy fiskal siyosatning fundamental yo'nalishlaridan biri – soliq ma'muriyatchiligini raqamli transformatsiyalash tendensiyalarini majmuali tahlil etishga bag'ishlanadi. Maqolada soliq nazorati tizimida "lozim darajada ehtiyotkorlik" tamoyilining raqamli algoritmlari, shuningdek, sun'iy intellekt (AI) va katta ma'lumotlar (Big Data) texnologiyalarini integratsiyalash masalalari tadqiq qilingan. Ayniqsa, O'zbekistondagi 2025–2026-yillarga mo'ljallangan islohotlar xronologiyasi, jumladan, elektron hisobvaraq-fakturalarni real vaqt rejimida risk-tahlildan o'tkazish tizimining iqtisodiy-huquqiy oqibatlari empirik baholangan. Buyuk Britaniya, Yevropa Ittifoqi va Estoniyaning ilg'or tajribalari (HMRC Connect, Split Payment, Blokcheyn) qiyosiy-baxolash orqali milliy amaliyot uchun strategik taklif va tavsiyalar majmuasi ishlab chiqilgan.
Kalit so'zlar: Soliq ma'muriyatchiligi, yashirin iqtisodiyot, kontragent ishonchliligi, raqamlashtirish, soliq ilovasi, latent xatarlar, tahliliy hisobot, tadbirkorlik tavakkalchiligi.

Аннотация: Данное исследование посвящено комплексному анализу тенденций цифровой трансформации налогового администрирования, выступающего одним из фундаментальных направлений современной фискальной политики. В статье исследуются цифровые алгоритмы принципа "должной осмотрительности" в системе налогового контроля, а также вопросы интеграции технологий искусственного интеллекта (ИИ) и больших данных (Big Data). Особое внимание уделено эмпирической оценке экономических и правовых последствий хронологии реформ в Узбекистане на 2025–2026 годы, в частности, внедрения системы риск-анализа электронных счет-фактур в режиме реального времени. На основе сравнительного анализа передового опыта Великобритании (HMRC Connect), Европейского Союза (Split Payment) и Эстонии (Блокчейн) разработан комплекс стратегических предложений и рекомендаций для отечественной практики.
Ключевые слова: Налоговое администрирование, теневая экономика, надежность контрагента, цифровизация, налоговое приложение, латентные риски, аналитический отчет, предпринимательский риск.

Abstract: This study is devoted to a comprehensive analysis of digital transformation trends in tax administration, which constitutes one of the fundamental pillars of modern fiscal policy. The article examines the digital algorithms of the "due diligence" principle within the tax control system, as well as the integration of Artificial Intelligence (AI) and Big Data technologies. Particular emphasis is placed on an empirical assessment of the economic and legal implications of Uzbekistan's 2025–2026 reform chronology, specifically the implementation of a real-time risk assessment system for electronic invoices. Through a comparative evaluation of advanced international practices from the United Kingdom (HMRC Connect), the European Union (Split Payment), and Estonia (Blockchain), a strategic set of proposals and recommendations has been developed to optimize national practices.

Keywords: Tax administration, shadow economy, counterparty reliability, digitalization, tax mobile app, latent risks, analytical report, business risk.

Kirish

Raqamli transformatsiya sharoitida soliq ma'muriyatchiligini innovatsion axborot-kommunikatsiya texnologiyalari negizida modernizatsiya qilish faqatgina budjet tushumlarini diversifikatsiyalash mexanizmi bo'lib qolmasdan, balki makroiqtisodiy fiskal barqarorlikni ta'minlash, institutsional shaffoflikni oshirish hamda ixtiyoriy soliq munosabatlariga rioya etish madaniyatini shakllantirishning strategik drayveriga aylanmoqda. An'anaviy soliq menejmentida nazorat tadbirlari asosan inson omili yuqori bo'lgan ex-post (fakt ro'y bergandan keyingi nazorat) prinsiplariga hamda yuqori resurs va vaqt sarfini talab qiluvchi reaktiv usullarga tayanar edi. Tizimning raqamlashtirilishi esa ushbu konseptual yondashuvni oldini oluvchi va xatarlarni boshqarishning proaktiv modellariga o'tkazib, soliq nazoratini to'liq ma'lumotlar tahliliga asoslangan (data-driven) ekotizimga transformatsiya qilmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda soliq sohasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning 2026-yil 6-apreldagi "soliq ma'murchiligini takomillashtirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi taqdimotiga asosan "yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va 2030-yilgacha soliq tushumlarini 491,5 trillion so'mga yetkazish maqsadida ma'muriyatchilikni isloh qilish belgilandi hamda iqtisodiyotda kuzatilmaydigan ulushni esa 28 foizdan 19,6 foizgacha qisqartirish maqsad qilingan"[1].

Hozirgi bosqichda elektron hujjat aylanishi va elektron hisobvaraq-fakturalar (EHF) instituti xo'jalik yurituvchi subyektlarning operatsiyalarini onlayn rejimda monitoring qilish, qiymat yaratish zanjirini (supply chain) uzluksiz kuzatish hamda soliqqa tortish bazasini erozitasiyadan himoya qilishda muhim vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, masofaviy interaktiv xizmatlar (soliq to'lovchining shaxsiy kabineti, mobil platformalar va intellektual konsultantlar) fiskal organlar va biznes o'rtasidagi tranzaksion xarajatlarni qisqartirib, ma'muriy yukni kamaytiradi va ixtiyoriy soliq intizomini (tax compliance) rag'batlantiradi. Bu sharoitda davlatning strategik vazifasi fiskal bosimni kuchaytirish emas, balki soliq to'lovchilar uchun prognoz qilinadigan, qulay va shaffof sheriklik muhitini yaratishdan iboratdir.

Katta ma'lumotlar (Big Data) massivlari va sun'iy intellekt (AI) algoritmlariga asoslangan risk-tahlil tizimlari soliq boshqaruvining sifat jihatidan yangi paradigmasini belgilab beradi. Ushbu texnologiyalar diversifikatsiyalangan manbalardan (EHF, onlayn-NKM, bojxona deklaratsiyalari, bank tranzaksiyalari va kontragentlarning komplayens-profillari) olinadigan ma'lumotlarni integratsiyalash orqali yashirin xatarlarni erta bosqichda modellashtirish, fiktiv operatsiyalarni va "qog'ozdagi" tovar aylanmalarini filtratsiyalash hamda nazorat tadbirlarini manzilli (targetlangan) rejalashtirish imkonini beradi. Natijada soliq nazorati resurslari yalpi tekshirish amaliyotidan voz kechib, yuqori xavf guruhiga ega segmentlarga yo'naltiriladi. Bu esa soliq tizimining neytralligi va adolatlilik prinsiplarini mustahkamlab, halol tadbirkorlik subyektlarining ortiqcha ma'muriy bosimga uchrashini oldini oladi.

Adabiyotlar sharhi

Quyidagi adabiyotlar majmuasi zamonaviy iqtisodiyotda soliq ma'muriyatchiligining yangi paradigmasi, raqamli texnologiyalarning fiskal samaradorlikka ta'siri hamda ilg'or xorijiy amaliyotlarning milliy tizimga integratsiyalashuvini bir-biri bilan bog'lab beradi.

OECD tahliliy hisobotlarida iqtisodiy jarayonlarning jadal transformatsiyalashuvi hamda murakkablik darajasi ortishi fonida an'anaviy soliq ma'muriyatchiligi modellarining samaradorligi pasayib borayotgani ta'kidlanadi va bu "Tax Administration 3.0" konsepsiyasiga o'tishning fundamental asosi sifatida ko'rsatiladi. Mazkur yondashuvning konseptual o'zagi — fiskal majburiyatlarni bajarish mexanizmlarini subyektlarning tabiiy biznes tizimlariga (natural systems) integratsiya qilish, an'anaviy davriy hisobot tizimidan voz kechish hamda raqamli platformalar negizida o'zaro "ishonch ekotizimi"ni

shakllantirishdan iborat. Bu strategiya soliq nazoratidagi retrospektiv (o‘tgan davrga yo‘naltirilgan) yondashuv kabi tizimli muammolarni bartaraf etish hamda boshqaruvni preventiv (ogohlantiruvchi) modelga o‘tkazish zaruriyati bilan uzviy bog‘liqdir [3].

Xalqaro valyuta jamg‘armasi (IMF) doirasida olib borilgan tadqiqotlarda Nose, Pierri va Honda korporativ sektor hamda soliq ma’muriyatchiligini (GovTech) parallel ravishda raqamlashtirish fiskal tushumlar barqarorligini ta’minlovchi strategik instrument ekanligini empirik jihatdan isbotlaydi. Mualliflarning tahliliy xulosalariga ko‘ra, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning raqamli transformatsiya va yetuklik darajasi ortishi soliq tushumlarining YaIMdagi ulushini 3 foiz punktigacha oshirish imkonini beradi. Raqamli hisob-kitoblar, elektron hujjat aylanishi hamda platformalararo ma’lumotlar integratsiyasining yo‘lga qo‘yilishi yashirin iqtisodiy operatsiyalar ko‘lamini cheklab, norasmiy sektorni fiskal qamrovga jalb etishning fundamental mexanizmi sifatida baholanadi [4].

Yevropa komissiyasi va qator xalqaro tahliliy markazlarning tadqiqotlarida an’anaviy soliq ma’muriyatchiligiga xos funksional cheklovlarni raqamli innovatsiyalar yordamida bartaraf etish bo‘yicha muvaffaqiyatli amaliy keyslar tahlil qilingan [8]. Jumladan, Buyuk Britaniya soliq tizimida Katta ma’lumotlar (Big Data) massivlariga tayanuvchi “Connect” platformasining joriy etilishi sun’iy intellekt algoritmlari yordamida subyektlar o‘rtasidagi yashirin aloqalar va fiskal anomaliyalarni barvaqt aniqlashda yuqori samaradorlik ko‘rsatdi [6]. Polsha amaliyotidagi to‘lovlarni differensial ajratish (Split Payment) mexanizmi esa qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha defitsit (VAT Gap) hamda g‘ayriqonuniy sxemalar xavfini keskin kamaytirish imkonini berdi [9, 10, 12]. Bundan tashqari, Estoniya tajribasi misolida [14] ma’lumotlar almashinuvi xavfsizligi hamda ularning verifikatsiyasini ta’minlashda KSI Blokcheyn texnologiyalarining funksional imkoniyatlari ilmiy asoslab berilgan.

Mahalliy tadqiqotlarda O‘zbekiston soliq tizimini raqamlashtirishning strategik konsepti va uning amaliy instrumentariysi uzviy aloqadorlikda ko‘rib chiqiladi (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, 2020). Bunda “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategik dasturi fiskal ma’lumotlarni keng qamrovli integratsiyalash va chuqur tahliliy yechimlarni rivojlantirish drayveri sifatida namoyon bo‘ladi. Raqamli islohotlarning paradigmal asosi sifatida elektron hisobvaraq-fakturalarni real vaqt (onlayn) rejimida avtomatlashtirilgan risk-skriningdan o‘tkazish tizimi ko‘rsatilgan bo‘lib, u soliq ma’muriyatchiligini yalpi nazorat tizimidan aniq operatsiyalarga yo‘naltirilgan “tranzaksion” yondashuvga transformatsiya qilishning institutsional asosi hisoblanadi [2].

Ushbu xalqaro makro-tendensiyalar mahalliy fanda To‘lakovning ilmiy izlanishlari orqali o‘zbekistonlik subyektlar faoliyati kontekstiga transfer qilinib, soliq ma’muriyatchiligini raqamli transformatsiya qilish va transformatsiyalash masalalari bilan bevosita sintezlanadi. Mazkur manbalar majmuasi respublikamizda tatbiq etilayotgan elektron hisobvaraq-fakturalarni real vaqt rejimida avtomatlashtirilgan risk-tahlil qilish mexanizmlarini, qolaversa, sun’iy intellekt va blokcheyn texnologiyalarini universal xalqaro andozalar hamda fundamental nazariy yondashuvlar doirasida unifikatsiya qilishning metodologik asosi sifatida namoyon bo‘ladi [18, 19, 20, 21].

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda normativ-huquqiy hamda institutsional tahlil uslublari kombinatsiyasidan foydalangan holda, soliq ma’muriyatchiligini raqamli texnologiyalar negizida transformatsiya qilish mexanizmlarining funksional ijrosi baholandi. Komparativ (qiyosiy) tahlil metodi orqali ilg‘or xorijiy mamlakatlar tajribasi va O‘zbekiston Respublikasining soliq tizimidagi amaliy tendensiyalar o‘zaro qiyoslandi. Keys-stadi (case-study) yondashuvi doirasida 2025–2026-yillar davomida elektron hisobvaraq-fakturalarni tranzaksion model asosida, onlayn (real vaqt) rejimida risk-skriningdan o‘tkazish tizimining ishlash algoritmlari hamda uning institutsional natijalari chuqur tahlil etildi. Tadqiqotning umumiy ilmiy xulosalari tahlil va sintez, induksiya va deduksiya hamda nazariy-konseptual modellashtirish metodlarini tizimli qo‘llash orqali shakllantirildi.

Tahlil va natijalar

Zamonaviy jahon iqtisodiyotining raqamli transformatsiyalashuvi davlat boshqaruvi tizimi, jumladan, soliq organlari oldiga konseptual jihatdan yangi va murakkab vazifalarni qo‘ymoqda. Asosan ortga qaratilgan (retrospektiv) tekshiruvlar hamda qog‘oz hujjatlar aylanishiga asoslangan klassik soliq ma’muriyatchiligi instrumentariysi bugungi kun biznes jarayonlarining tezkorligi va moslashuvchanligi talablariga javob berish salohiyatiga ega emas. Mazkur sharoitda an’anaviy fiskal boshqaruv modellaridan voz kechilib, raqamli ekotizimlar integratsiyasini nazarda tutuvchi yangi paradigma — “Soliq ma’muriyatchiligi 3.0” (Tax Administration 3.0) platformasiga o‘tish jarayoni faollashmoqda.

Ushbu yangi paradigma quyidagi fundamental o‘zgarishlarni nazarda tutadi:

1. Soliq majburiyatlarini bajarish jarayoni soliq to‘lovchining tabiiy biznes jarayonlariga (natural systems) singdirilishi shart. Ya’ni, soliq hisoboti alohida harakat emas, balki tijorat operatsiyasining avtomatik natijasi bo‘lishi kerak;
2. Davriy hisobotlardan (oylik, choraklik) voz kechib, har bir tranzaksiya bo‘yicha ma’lumotlarning real vaqtda soliq organlariga kelib tushishi;
3. Soliq huquqbuzarligi sodir etilgandan so‘ng uni aniqlash va jazolash emas, balki raqamli vositalar yordamida huquqbuzarlikning oldini olish [19].

OECD tahliliy hisobotlariga muvofiq, raqamli innovatsiyalar fiskal organlar hamda soliq subyektlari o‘rtasida barqaror “ishonch ekotizimi”ni shakllantirishning fundamental sharti hisoblanadi. Bunda institutsional ishonch faqatgina sotsial-axloqiy mezon bo‘lib qolmasdan, balki subyektlarning soliq majburiyatlarini ixtiyoriy ravishda bajarish (voluntary compliance) ko‘rsatkichlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri belgilovchi strategik iqtisodiy kategoriya sifatida baholanadi.

Xalqaro valyuta jamg‘armasi (IMF) tadqiqotlari doirasida korporativ sektor va soliq ma’muriyatchiligini (GovTech) sinxron raqamlashtirishning fiskal samaradorlikka ta’siri empirik jihatdan dalillangan. Xususan, biznes tuzilmalarining raqamli yetuklik indeksining bir standart og‘ishga (standard deviation) ortishi soliq tushumlarining YaIMga nisbatan salmog‘ini 3 foiz punktigacha o‘sishini ta’minlovchi muhim drayver bo‘lib xizmat qiladi.

Bu o‘sish quyidagi omillar hisobiga ta’minlanadi:

- raqamli to‘lovlar va elektron hujjat aylanishi “qora bozor” operatsiyalarini amalga oshirishni qiyinlashtiradi va qimmatga tushiradi;
- raqamli platformalar orqali ilgari soliqqa tortilmagan sektorlar (gig-iqtisodiyot, elektron tijorat) qamrab olinadi;
- avtomatlashtirish hisobiga soliq organlarining operatsion xarajatlari kamayadi, resurslar esa yuqori xavfli sohalarni tahlil qilishga yo‘naltiriladi.

Soliq huquqining fundamental prinsiplaridan biri sanalgan “lozim darajada ehtiyotkorlik” (due diligence) tamoyili soliq to‘lovchi zimmasiga kontragentlarni (ishbilarmonlik hamkorlarini) tanlash jarayonida yuksak mas’uliyat va analitik ehtiyotkorlik namoyon etish majburiyatini yuklaydi. Mazkur huquqiy doktrinaga ko‘ra, agar xo‘jalik yurituvchi subyekt fiktiv operatsiyalar bilan shug‘ullanuvchi (“bir kunlik”) tuzilmalar yoki soliq to‘lashdan bo‘yin tovlovchi kontragentlar bilan bitim imzolasa hamda ushbu operatsiyalar negizida fiskal preferensiyalarni (xususan, qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisobga olish mexanizmini) qo‘llasa, soliq organlari subyektni yetarli darajada ishonchlilik nazoratini o‘tkazmaganlikda ayblab, soliq chegirmalarini bekor qilish huquqiga ega bo‘ladi.

Tizimni raqamlashtirish bosqichigacha bo‘lgan davrda mazkur tamoyilning funksional interpretatsiyasi hamda uni amaliyotga tatbiq etish mexanizmlari jiddiy asimmetrik qiyinchiliklarga duch kelgan. Tadbirkorlik subyektlari o‘z hamkorlarining moliyaviy-huquqiy maqomini verifikatsiya qilish uchun rasmiy so‘rovlar tizimi, arxiv ma’lumotlarini o‘rganish kabi ko‘p vaqt va yuqori tranzaksion xarajatlar talab qiluvchi an’anaviy usullardan foydalanishga majbur edi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal evolutsiyasi va ma’lumotlar integratsiyasining kengayishi

mazkur tekshiruv jarayonlarining tabiatini tubdan o‘zgartirib, ularni proaktiv hamda onlayn monitoring formatiga o‘tkazdi.

Zamonaviy “Raqamli ehtiyotkorlik” quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi:

1. Ilgari faqat soliq organida mavjud bo‘lgan ma’lumotlar (kontragentning soliq qarzdorligi, xavf darajasi, QQS guvohnomasining maqomi) endilikda ochiq ma’lumotlar bazalari va mobil ilovalar orqali real vaqtda taqdim etilmoqda;

2. O‘zbekistondagi “Soliq” mobil ilovasi yoki my.soliq.uz portali orqali STIR (Soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami) kiritilishi bilanoq, tizim kontragent haqida to‘liq ma’lumotlar to‘plamini taqdim etadi. Bu tadbirkorga bir necha soniya ichida qaror qabul qilish imkonini beradi;

3. Raqamli izlar (skrinshotlar, elektron so‘rovlar tarixi) soliq nizolarida tadbirkorning haqiqatan ham ehtiyotkor bo‘lganligini isbotlovchi dalil bo‘lib xizmat qiladi.

Axborot texnologiyalari “lozim darajada ehtiyotkorlik”ni mavhum huquqiy tushunchadan aniq algoritmik jarayonga aylantirmoqda. Bu esa soliq ma’muriyatchiligida shaffoflikni oshirib, korrupsiya xavfini kamaytiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 15-moddasida “Lozim darajada ehtiyotkorlik” tushunchasi mustahkamlangan. Unga ko‘ra, soliq to‘lovchilar kontragentlarni tanlashda ularning soliq organlarida hisobga qo‘yilganligi, ishbilarmonlik obro‘si, ishlab chiqarish bazasi va xodimlari mavjudligini, shuningdek, bitim bo‘yicha majburiyatlarni bajarish qobiliyatini tekshirishlari shart.

Jahon tajribasini o‘rganish O‘zbekiston uchun o‘z raqamli strategiyasini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega. Quyida Buyuk Britaniya, Yevropa Ittifoqi va Estoniyaning ilg‘or modellari tahlil qilinadi [18].

Buyuk Britaniyaning Daromadlar va bojxona xizmati (HMRC) fiskal tahlil sohasida dunyodagi eng universal raqamli platformalardan biri – “Connect” tizimini muvaffaqiyatli joriy etgan. Mazkur intellektual tizim soliq organlari amaliyotida Katta ma’lumotlar (Big Data) texnologiyalaridan unumli foydalanishning paradigmal namunasi hisoblanadi.

“Connect” platformasining funksional o‘ziga xosligi an’anaviy soliq deklaratsiyalarini mexanik tekshirish bilan cheklanmasdan, balki subyektlarning kompleks “raqamli portreti”ni shakllantirish qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Tizim 22 milliarddan ziyod ma’lumotlar massivini real vaqt rejimida o‘zaro korrelyatsiya qiladi va chuqur tahliliy tahlildan (data analytics) o‘tkazadi.

Ma’lumotlar manbalari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- bank hisobraqamlari, kredit kartalari operatsiyalari, ipoteka ma’lumotlari;
- ko‘chmas mulk kadastri, avtomobillarni ro‘yxatga olish, kompaniyalar uyi;
- eBay, Amazon, Airbnb, Etsy kabi onlayn savdo maydonchalari;
- OECDning CRS (Common Reporting Standard) standarti bo‘yicha 60 dan ortiq davlatdan olingan offshor hisobraqamlar ma’lumotlari;
- ochiq manbalardagi ma’lumotlar.

“Connect” platformasi o‘zining sun’iy intellekt algoritmlari yordamida subyektlar o‘rtasidagi yashirin tranzaksion zanjirlarni hamda moliyaviy nomuvofiqliklarni (anomaliyalarni) avtomatlashtirilgan tarzda identifikatsiya qiladi. Masalan, soliq to‘lovchi tomonidan deklaratsiya qilingan yillik daromad (£20,000) bilan uning tasarrufidagi yuqori qiymatli aktivlar (£1 millionlik ko‘chmas mulk) yoki ochiq axborot resurslaridagi (ijtimoiy tarmoqlardagi) yuqori xarajatli iste’mol balansi o‘rtasida nomutanosiblik aniqlansa, tizim ushbu holatni yuqori xavfli (risk) segment sifatida baholaydi va nazorat inspektoriga tezkor signal yo‘llaydi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2024–2025-yillarda mazkur tizim drayverligida aniqlangan qo‘shimcha fiskal tushumlar £4,6 milliard sterlingni tashkil etgan. Mazkur ko‘rsatkich raqamli infratuzilmaga yo‘naltirilgan investitsiyalarning yuqori rentabelligini ko‘rsatadi, ya’ni kiritilgan har 1 funt sterling sarmoya hisobiga 37,5 funt sterling miqdorida iqtisodiy qaytim (ROI) ta’minlangan. Ushbu empirik natija raqamli nazorat ekotizimlarining operatsion samaradorligi naqadar yuqori ekanligini fundamental jihatdan isbotlaydi [6].

Estoniyada fiskal ma’lumotlar xavfsizligi va daxlsizligini ta’minlashda KSI Blokcheyn (KSI Blockchain) texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha ilg‘or global tajriba shakllangan. Mamlakatdagi barcha davlat reestrlari “X-Road” integratsion platformasi orqali o‘zaro sinxronlashtirilgan bo‘lib, soliq organlariga idoralararo va bank ma’lumotlarini avtomatlashtirilgan rejimda qabul qilish imkonini beradi. Natijada, jismoniy shaxslarning daromad solig‘i deklaratsiyalarining 98% dan ortig‘i tizim tomonidan proaktiv shakllantiriladi; bunda soliq to‘lovchi uchun verifikatsiya jarayoni o‘rtacha 3 daqiqa vaqt talab etadi. Tizimda ma’lumotlar yaxlitligini KSI Blokcheyn arxitekturasi kafolatlaydi, bu esa axborotlarni retrospektiv (orqa sana bilan) o‘zgartirish xavfini mutlaqo istisno etib, soliq ekotizimiga bo‘lgan ijtimoiy ishonch darajasini maksimal darajaga ko‘taradi [14].

O‘zbekiston soliq tizimi so‘nggi yillarda “raqamli sakrash”ni amalga oshirmoqda. 2025-2026-yillarga mo‘ljallangan islohotlar soliq ma’muriyatchiligini yangi bosqichga olib chiqishni maqsad qilgan [21].

Eng muhim va inqilobiy o‘zgarishlardan biri – elektron hisobvaraq-fakturalarni real vaqt rejimida avtomatlashtirilgan risk tahlilidan o‘tkazish tizimining joriy etilishidir. Ushbu tizim 2025-yil 22-dekabrdan boshlab sinov rejimida ishga tushirildi va 2026-yil 1-yanvardan to‘liq kuchga kiradi. Tizimning asosiy maqsadi – soliq nazoratini “umumiy” yondashuvdan “tranzaksion” yondashuvga o‘tkazishdir. Tizim har bir yozilgan elektron hisobvaraq-fakturaga (EHF) sun’iy intellekt va oldindan belgilangan mezonlar asosida avtomatik ravishda xavf darajasini belgilaydi.

Yangi tizim esa tranzaksion yondashuvga asoslangan. Ya’ni, tizim korxonani emas, balki konkret bitimni (fakturani) tahlil qiladi. Hatto namunali soliq to‘lovchi ham shubhali operatsiyani amalga oshirsa (masalan, omborda yo‘q tovarni sotsa), faqat o‘sha faktura “qizil” bo‘ladi, boshqa operatsiyalari esa “yashil” bo‘lib qolaveradi. Bu biznes uchun ancha adolatli va moslashuvchan mexanizmdir.

Yangi tizimda, agar faktura “qizil” (yuqori xavfli) deb topilsa, QQS hisobga olinmaydi. Buni bartaraf etish uchun ikkita yo‘l mavjud:

1. Sotuvchi byudjetga soliqni to‘liq to‘laganidan so‘ng, faktura avtomatik ravishda “yashil”ga aylanadi;

2. Xaridor sotuvchiga ishonmasa, QQS summasini sotuvchiga emas, balki to‘g‘ridan-to‘g‘ri davlat byudjetiga “soliq agenti” sifatida to‘lashi mumkin. Shunda u QQSni hisobga olish huquqini saqlab qoladi.

Polshaning “Split Payment” modelidan farqli o‘laroq, ushbu mexanizm bank hisobvaraqlari darajasida emas, balki bevosita elektron hisob-kitob va deklaratsiya tizimi doirasida realizatsiya qilinadi. Bunday arxitektura sharoitida xaridorlar yuqori risk guruhidagi (shubhali) sotuvchilar bilan tijoriy aloqalar o‘rnatishdan iqtisodiy jihatdan manfaatdor bo‘lmay qoladilar, chunki bu holat ularda qo‘shilgan qiymat solig‘ini (QQS) hisobga olish huquqini yo‘qotish xavfini yuzaga keltiradi. Natijada, ushbu selektiv yondashuv bozorda halol raqobat muhitini shakllantirib, fiskal jihatdan ishonchsiz subyektlarni iqtisodiy aylanmadan tabiiy ravishda siqib chiqarishga (filtratsiyalashga) xizmat qiladi.

O‘zbekiston hukumati soliq ma’muriyatchiligini qo‘llab-quvvatlash uchun kuchli IT infratuzilmasini yaratmoqda. “Raqamli O‘zbekiston 2030” strategiyasi doirasida soliq ma’lumotlarini tahlil qilish uchun SI algoritmlari keng joriy etilmoqda. 2025-yilda Toshkentda Larsen & Toubro kompaniyasi tomonidan 10 MVt quvvatga ega bo‘lgan, SI texnologiyalarini qo‘llab-quvvatlovchi mintaqadagi birinchi ma’lumotlar markazi (Data Center) qurilishi rejalashtirilgan [19].

Soliq organlari tomonidan nafaqat ichki idoraviy ma’lumotlar, balki bojxona, bank, kadastr va boshqa davlat tuzilmalarining axborot massivlarini o‘zaro integratsiyalash orqali yagona interaktiv platforma shakllantirilmoqda. Mazkur tahliliy ekotizim yashirin (xufiyona) iqtisodiy faoliyat ko‘lamini diagnostika qilish va uning oldini olishda fundamental rol o‘ynaydi.

Ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, soliq ma’muriyatchiligining raqamli transformatsiyasi shunchaki texnologik yangilanish bosqichi bo‘lmay, balki tizimli iqtisodiy va tarkibiy ijtimoiy o‘zgarishlarni harakatlantiruvchi muhim drayver hisoblanadi.

O‘zbekistonda tatbiq etilayotgan EHF risk-skrining platformasi hamda Polshaning “Split Payment” arxitekturasining konseptual o‘xshashligi — soliq nazorati funksiyalarini qisman bozor subyektlarining o‘z-o‘zini tartibga solish mexanizmlariga yuklashida namoyon bo‘ladi. Davlat tomonidan yuqori risk guruhidagi subyektlarning “qizil” status bilan identifikatsiya qilinishi kontragentlar uchun kuchli iqtisodiy signal bo‘lib xizmat qiladi: xaridorlar QQS bo‘yicha hisobga olish huquqini yo‘qotmaslik uchun bunday ishonchsiz hamkorlar bilan aloqalarni cheklaydi yoki ularni qonuniy faoliyatga majburlaydi.

Ushbu selektiv yondashuv bozorda fiskal jihatdan intizomsiz ishtirokchilarni tabiiy ravishda filtrlash muhitini yaratadi. Mazkur model bevosita joylardagi yalpi tekshirish amaliyotiga bo‘lgan ehtiyojini minimallashtirib, intizomni raqamli signallar va bozor stimullari orqali avtomatlashtirilgan tarzda ta’minlaydi, bu esa cheklangan ma’muriy resurslarni yuqori samaradorlik bilan tejash imkonini beradi.

OECD hisobotida aytilgan “Tabiiy tizimlar” konsepsiyasi O‘zbekiston uchun kelajak strategiyasidir. Hozirda tadbirkorlar EHF yuborish uchun alohida platformalarga kirishga majbur. Kelajakda soliq hisobotlari tadbirkor ishlatadigan buxgalteriya dasturlari (1C, Didox va h.k.) ichida API orqali avtomatik shakllanishi va yuborilishi kerak.

Vengriya (M2M tizimi) va Kanada tajribasi shuni ko‘rsatadiki, API orqali ma’lumot almashish soliq to‘lovchi uchun soliq majburiyatini “ko‘rinmas” va “og‘riqsiz” jarayonga aylantiradi. Bu biznes jarayonlarining uzluksizligini ta’minlaydi.

Texnologik rivojlanish bilan birga, algoritmik audit va raqamli appelyatsiya mexanizmlari ham rivojlanishi shart. Soliq to‘lovchi nima uchun uning tranzaksiyasi “shubhali” deb topilganini aniq bilish va unga e’tiroz bildirish huquqiga ega bo‘lishi kerak. O‘zbekistonda 2026-yilgacha bo‘lgan davrda jarimalarning qo‘llanilmasligi bu muammoni yumshatishga qaratilgan to‘g‘ri qadamdir, ammo doimiy yechim – bu shaffoflikdir.

Raqamli soliq ma’muriyatchiligiga o‘tishda O‘zbekiston duch kelishi mumkin bo‘lgan asosiy to‘siqlar va ularni yechish yo‘llari:

- IMF va xalqaro tadqiqotchilar tomonidan e’tirof etilganidek, raqamli platformalarning funksional samaradorligi bevosita infratuzilma sifati hamda foydalanuvchilarning raqamli kompetensiyasiga bog‘liq. O‘zbekistonning regional va chekka hududlarida internet aloqasi resurslarining cheklanganligi hamda kichik tadbirkorlik subyektlarining texnologik savodxonlik darajasi pastligi EHF tizimining to‘liq konseptual quvvatda ishlashiga tizimli to‘sqinlik qilishi mumkin. Mazkur muammolarni bartaraf etishning strategik yechimi sifatida soliq mobil ilovalarining “yengillashtirilgan” (Lite) muqobillarini ishlab chiqish hamda “Soliqchi-ko‘makchi” dasturi doirasida joylarda tadbirkorlar uchun tizimli bepul treninglar va amaliy seminarlar ekotizimini tashkil etish taklif etiladi.

- Butun milliy iqtisodiyot ma’lumotlar oqimining bitta markazlashgan tizimda (Big Data) konsentratsiyalashuvi kiberhujumlar va tashqi tahdidlar riskini keskin oshiradi. Mazkur fiskal bazadan axborotlarning sizib chiqishi nafaqat davlat xavfsizligiga, balki minglab tadbirkorlik subyektlarining konfidentsial tijorat sirlariga ham jiddiy iqtisodiy zarar yetkazishi mumkin. Ushbu tahdidlarning oldini olishda Estoniya amaliyotidan foydalangan holda, ma’lumotlar yaxlitligi va daxlsizligini kafolatlovchi blokcheyn texnologiyalarini tizimga joriy etish hamda milliy ma’lumotlar markazlarining (Data Centers) fizik hamda dasturiy-kriptografik himoya arxitekturasini tubdan kuchaytirish zarur hisoblanadi.

- “Qizil” yo‘lakdagi fakturalar bo‘yicha QQS chegirmalarining rad etilishi biznes subyektlarining aylanma mablag‘larini vaqtincha muzlatib qo‘yish xavfini tug‘diradi. Polsha tajribasi ko‘rsatganidek, mazkur cheklovlar ayniqsa likvidliligi past bo‘lgan kichik tadbirkorlik tuzilmalari uchun jiddiy moliyaviy qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Ushbu salbiy ta’sirni minimallashtirish uchun “qizil” reyting maqomini “yashil”ga o‘tkazish (verifikatsiya) jarayonlarini maksimal darajada tezlashtirish va avtomatlashtirish zarur. Tizimda aniqlangan nomuvofiqliklar bartaraf etilishi yoki tegishli to‘lovlar

bajarilishi bilanoq, subyektning kamsituvchi maqomi real vaqt rejimida avtomatik ravishda bekor qilinishi shart.

Xulosa

Tahlil va xalqaro tajribaga asoslangan holda, quyidagi strategik choralar tavsiya etiladi:

- “Yolg‘on musbat” (false positive) xatoliklarini minimallashtirish: Tizimda insofli soliq to‘lovchilarning texnik xatoliklar sababli yuqori risk (“qizil”) guruhiga asossiz kiritilishining oldini olish maqsadida, sun’iy intellekt (SI) algoritmlarini muntazam ravishda empirik ma’lumotlar asosida o‘qitib borish va tadbirkorlik subyektlari bilan tezkor qayta aloqa (feedback) interaktiv kanallarini joriy etish;
- Ochiq API standartlarini integratsiya qilish: Soliq ma’muriyatchiligi platformalarini tadbirkorlarning ichki ERP va avtomatlashtirilgan buxgalteriya dasturlariga (masalan, 1C, Didox va b.) to‘g‘ridan-to‘g‘ri sinxronizatsiya qilish maqsadida universal ochiq API (Application Programming Interface) standartlarini ishlab chiqish va amaliyotga ommaviy tatbiq etish;
- Fiskal qarorlarning shaffofligi va interpretatsiyasi: Soliq to‘lovchilarda risklarni baholash mezonlari bo‘yicha aniq tasavvur shakllantirish. Ya’ni, tizim subyekt operatsiyalarini shunchaki cheklovchi status bilan belgilab qolmasdan, balki ushbu qarorning deterministik omillarini (masalan, “Omborda tovar qoldig‘ining yetarsizligi”) tahliliy jihatdan aniq ko‘rsatib berishi lozim;
- Kripto-aktivlar aylanmasini fiskalizatsiyalash: Estoniya hamda Yevropa Ittifoqining ilg‘or tajribasini (xususan, DAC8 direktivasini) inobatga olgan holda, milliy va xalqaro kripto-birjalar bilan transchegaraviy ma’lumotlar almashinuvini yo‘lga qo‘yish hamda kripto-aktivlardan olinadigan daromadlarni deklaratsiyalash jarayonlarini to‘liq avtomatlashtirish;
- “Qulaylik preferensiyalari” mexanizmini joriy etish: Kichik tadbirkorlik subyektlarini raqamli soliq ekotizimiga integratsiya qilishda an’anaviy fiskal imtiyozlar emas, balki “operatsion qulaylik preferensiyalari”ni (avtomatlashtirilgan hisobotlar, bank tizimlari bilan integratsiyalashgan servislar) rag‘batlantiruvchi omil sifatida taklif etish.

Raqamli transformatsiya – bu manzil emas, balki davomli jarayon. O‘zbekiston tanlagan yo‘l – ehtiyotkorlik, shaffoflik va innovatsiyalarning uyg‘unligi – nafaqat fiskal barqarorlikni, balki sog‘lom ishbilarmonlik muhitini ham ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. Sh.Mirziyoyevning 2026-yil 6-apreldagi “soliq ma’murchiligini takomillashtirish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi tqdimot. – Toshkent, 2026-yil 6-aprel. – URL: https://share.google/sT5XOY2RqDxUyUTmB
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020). “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida (PF-6079-son Farmon). O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
3. OECD. (2025). Services. In Tax Administration 2025. OECD Publishing.
4. Nose, M., Pierri, N., & Honda, J. (2025). Leveraging Digital Technologies in Boosting Tax Collection (IMF Working Paper No. 25/89). International Monetary Fund.
5. TaxAssist Accountants. (2024). What is HMRC’s Connect AI System?
6. Clever Accounts. (2024). The Digital Detective: How HMRC’s Connect System is Changing Tax Compliance.
7. Pinsent Masons. (2023, June 21). HMRC finds value in ’big data’ after bringing in extra £4.6billion.
8. European Commission. (2017). Analysis of the impact of the split payment mechanism as an alternative VAT collection method.
9. Vertex, Inc. (2024). VAT Compliance Update, Part 2: Split Payment.
10. Intertax. (2024). Mandatory Split Payment Mechanism In Poland Extended Until 2028.
11. Crowe Poland. (2024). VAT. Split payment mandatory until 28 February 2028.

12. Sovos. (2023). Split Payments: New VAT Collection Mechanism in the European Union.
13. Interoperable Europe. (2023). The use of the National Blockchain Infrastructure to support the E-Residency Initiative in Estonia.
14. e-Estonia. (2024). KSI blockchain.
15. Thomson Reuters. (2023). The potential impact of tax authorities' digitalization on taxpayers.
16. Neliti. (2022). Challenges of the digitalization process in Uzbekistan.
17. Estonian Tax and Customs Board. (2024). Tax information exchange.
18. To'lakov, U.T. (2024). Raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq ma'muriyatchiligini raqamlashtirishning xorij tajribasi. Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari, 4(03), 3-12
19. To'lakov, U.T. (2025). Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirishda innovatsion yondashuvlar. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari, 5(1), 91–105.
20. To'lakov, U.T. (2025). Zamonaviy soliqqa tortishda sun'iy intellektning o'rni. Raqamli iqtisodiyot, 11, 103–116.
21. To'lakov, U.T. (2025). Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirishda blokcheyn texnologiyalaridan foydalanish. Raqamli transformatsiya sun'iy intellekt, 3(2), 113–123.